

IMOM AL-BUXORIYNING FALSAFIY QARASHLARI

DTPI Pedagogika instituti Maktabgacha

ta'lim yo'nalishi 103 – gurux talabasi

Mamatqulova Gavhar Olim qizi .

Xurramova Maftuna Akbarali qizi

Annotatsiya : Ushbu maqolada Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al Buxoriyning falsafiy qarashlari batafsil yoritib berilgan .

Kalit so'zlar; Xotira ,fazilat , falsafiy tadqiqotlar , axloq , ilim .

Kirish Imom al-Buxoriy (asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al Buxoriy 810- 870-yillar) islom olamining yirik mutafakkiri. Muhaddislar imomi deb yuritiladi. Otasi Ismoil o'z davrining yetuk muhaddislaridan, Malik ibn Alasning shogirdi va yaqinlaridan biri bo'lib, tijorat ishlari bilan shug'ullangan. Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi validasi zimmasiga tushgan. U 5—6 yoshidan islomiy ilmlarni, Muhammad (s.a.v)ning hadislarini o'rganishga va yodlashga kirishadi. Taniqli muhaddislar — Doxiliy, Muhammad ibn Salom Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad Masnadiy va boshqalardan saboq olgan. Azaldan muhaddislar safarga chiqishdan oldin o'z yurtidagi roviylardan birorta ham hadis qoldirmasdan yozib olgan bo'lishi va shundan keyingina boshqa shahar yoki mamlakatga safarga o'tlanishi mumkin edi. Buxoriy 16 yoshga yetguncha, o'z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib, yozib olib, xalifalikning turli viloyatlari tomon yo'l oladi. 825 yil Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etadi. Onasi va akasini Buxoroga qaytarib, o'zi Makkada qoladi. Bu yerda faoliyat ko'rsatayotgan olimlarning ilmiy yig'inida qatnashadi. 827 yil Madinaga boradi. Madinadagi mashhur ulamolardan Ibrohim ibn Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza va boshqalar bilan muloqotda bo'lib, ulardan hadislar bo'yicha saboq oladi. Bu vaqtda

Rasulullohning sahobalari, sahobalarning izdoshlari turli mamlakatga tarqab ketgan edilar. Shunday sharoitda Muhammad(s.a.v)ning hadislarini to'plash turli shahar va mamlakatlarga borishni taqozo qilar edi. Bir necha tarixchilarning ta'kidlashicha, Imom Buxoriy Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan safarlari 6 yil davom etgan. So'ng Basra, Kufa va Bag'dodga safar qiladi. Shom va Misrga o'tadi. Bundan tashqari Xuroson, Marv, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibol kabi shaharlarda bo'lib, bu shaharlardagi olimlardan saboq oldi va hadislar to'pladi. Imom Buxoriyning asarlari orasida eng mashhur bo'lgani "Al-jome' as-Sahih"dir. Undan tashqari tarixiy voqealar va shaxslarni chuqur tahlil qiladigan, hadis ilmining asoslaridan bo'lgan ilmlarga oid bir qator o'ta ahamiyatli kitoblar yozdi. Imom Buxoriyning ilmiy ahamiyati yuksak bo'lgan bir nechta asarlar tasnif qildi: «Al-jome' as-sahih», «Al-adab al-mufrad», «At-tarix al-kabir», «At-tarix as-sag'ir», «At-tarix al-avsat», «At-tafsir al-kabir» «Birrul volidayn», «Asmo as-sahoba», «Kunyalar» va boshqalar. Ular orasidagi «Al-jome' as-sahih» asari islom olamida Qur'ondan keyingi eng muhim manba sifatida e'zozlanuvchi manba hisoblanadi. Imom Buxoriyning hadislar to'plash borasidagi qo'ygan shartlari boshqa muhaddislarning shartlaridan ko'ra aniqroq bo'lgani sababli «Al-jome' as-sahih» asari «Eng ishonchli hadislar to'plagan» nomiga sazovor bo'lgan. Muhaddislar hadislarining roviylarini o'zaro uchrashganlari ehtimoli mavjud bo'lsa shunga kifoyalanishgan, ammo Imom Buxoriy eshitgan hadislarining roviylari o'zaro uchrashganini alohida ko'rgan guvohning e'tirofini ham shart qilib qo'ygan. Bunday shart boshqa muhaddislarda uchramaydi. Hofiz ibn Xajar al-Askaloniyning hisobiga ko'ra «Al-jome' as-sahih»dagi hadislar soni 7397 tani tashkil etadi. Bular orasida takrorsizlari 2602 tani tashkil qiladi. Izohlar, roviylarning ixtilofi va ilovalarni qo'shilsa kitobda keltirilgan hadislar soni 9082 taga yetadi. Aynan Imom Buxoriy tufayli Movarounnahr hududida IX-XII asrlarda ko'plab hadisshunoslik maktablari shakllandi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi. Hozirgi kunda olimning asarlari dunyoning o'nlab tillariga tarjima qilingan va islom dunyosida uning ijodidan ko'plab ilmiy tadqiqotlarda foydalanib kelinadi. Ana shuning o'zidan ham anglash mumkinki Imom al Buxoriy nafaqat diniy balki

dunyoviy bilimlar taraqqiyotiga sezilarli tasir o'tkaza olgan. Imom Buxoriyning ijodiy merosi o'zining hajmi, zamonasining diniy va ijtimoiy fanlarini to'la-to'kis qamrab olganligi bilan kishini hayratga soladi. Xorijiy yurtlardagi safardan keyin Buxoroga qaytgach, hadis ilmini targ'ib etishga kirishadi. Ul zotning bu sa'yu ko'shishlari bu vaqtda Buxoroda hisoblanadi. Bu asar Hindiston va Qohirada chop etilgan. Buxoriy yaratgan „Kitob alfavoid“ („Foydali ashyolar haqida kitob“), „AlJomi' alkabiyr“ („Katta tayanch“), „Xalq afol alibod“, („Alloh bandalari ishlarining tabiati“), „AlMusnad alkabiyr“ („Katta tayanch“), „Attafsir alkabiyr“ („Katta tafsir“), „Kitob alxiba“ („Xayrehson haqida kitob“) va boshqa asarlarning ba'zilari bizgacha yetib kelmagan, ba'zilari jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma'lumotlar bor. Buxoriyning boshqa asarlari orasida „Tafsir al-Qur'on“ („Qur'on tafsiri“) kitobini ham alohida ta'kidlash kerak. Imom Buxoriy nafaqat yirik olim, balki o'zining go'zal xulq-atvori, odamoxunligi, muruvvatliligi, himmatliligi va beqiyos saxovatliligi bilan boshqalardan tamomila ajralib turgan. Buxoriy asarlari musulmon dunyosining barcha Madrasa va dorilfununlarida payg'ambar (as) sunnatlari bo'yicha asosiy darslik, qo'llanma hisoblanadi. Jamoat arboblari, olimu ulamolar va din peshvolari Buxoriy asarlariga tayanib ish tutadilar. Istiqlol sharofati bilan Buxoriyning o'lmas merosi elyurti bag'riga qaytdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Imom alBuxoriy tavalludining hijriyqamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini nishonlash to'g'risida“gi qarori (1997 yil 29 aprel) asosida Buxoriyning ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. Insoniyat madaniyati xazinasida shunday noyob kimsalar, nodir siymolar borki, hamma zamin-u zamonlarda barcha avlodlar ulardan o'zlari uchun ham ruhiy, ham ma'naviy ozuqa oladilar. ularning yog'ularidan muttasil istifoda etib yuradilar. Shunday olamshumul siymolar qatoridan sharaflil o'rin olgan yurtdoshimiz Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir.

Imom Buxoriy Makka, Madina, Damashq, Qaysariya, Xoms, Bag'dod, Kufa, Vosit, Balx, Nishopur, Asqalon, Marv kabi shaharlarda bir necha yil yashab,

hadislar to'plash, yozish va ko'plab toliblarga ilm o'rgatish bilan shug'ullanadi. Yigirma yoshidan boshlab kitob ta'lif eta boshladi. Ul zot qalamiga mansub bo'lgan «Al-Jome' as-Saxix», «Al-alab al-mufrad». <Imom Buxoriy ushbu asarida axloq, odob haqida so'z yuritar ekan, odamlarni ota-onaga hurmatda bo'lishga, onani e'zozlashga, mehr-oqibatli, pok va iymonli bo'lishga da'vat etadi, yaxshilik qilish insonning muqaddas burchi ekanini ta'kidlaydi. <Imom Buxoriy bolalarning solih-qobil bo'lishlari Alloh taoloning tavfiqi bilan bo'lishini, ammo ularga odob-axloq o'rgatish otalarning vazifasi ekanligini ta'kidlaydi. Buxoriy qarindosh-urug'larga yaxshilik qilishni, ularga nisbatan rahm-shafqatli bo'lish va ular bilan muttasil bordi-keldi qilib turishni ta'kidlaydi. «Anas ibn Moliq (rozi yalloxu anxu) aytadilar: <

A'robiylar: <Ulug' olim odamlarni to'g'ri so'zli bo'lishga, va'daga vafo qilishga da'vat etib, munofiq kishining uchta belgisi bo'lishligini ko'rsatib, ularga yolg'on gapirishdan, va'daga vafo qilmaslikdan va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytadi. Imom Buxoriy musulmon kishini xaqorat qilishni gunoh, u bilan urishishni kofirlik deb biladi. Va yana shu fikrni davom ettirib, insonning kuch-qudrati jismonan paxlavonligida emas, balki jaxli chiqqan vaqtda o'zini tiya olishida deb hisoblaydi. U bu haqda shunday rivoyat qiladi: «Rasululloh sahobalaridan: «Sizlar paxlavon deb kimni-xisoblaysizlar? - deb so'radilar. Ular: «Kurashda xech kimdan yiqilmaydigan kishini biz paxlavon deb bilamiz», deyishadi. Rasululloh: «Unday emas, Paxlavon deb jahli chiqqan vaqtda o'z nafsiga ega bo'la oladigan kishini aytiladi», dedilar». Imom Buxoriyning fikricha, har bir odam birodaridagi biror kamchilikni tuzatishga harakat qilmog'i lozim. Shu ma' noda ular bir-birlari uchun ko'z gudirlar. Bu haqda asarda shunday rivoyat bayon etilgan: <

Buyuk olimning ta'kidlashicha, inson uchun eng katta boylik qalb saxovatidir. Bu haqdagi fikrni olim quyidagi rivoyatda ifodalaydi: «Abu Hurayra Rasulullohdan rivoyat qildilar: •Boylik molning ko'pligi bilan emas, balki (chin) boylik - nafsning boyligidir.?- dedilar.Ulug' mutafakkir oilaviy muhitning

barqaror, tinch, oila a'zolarining sog' -salomat, to'q bo'lishini istaydi. Shunday bo'lgan oila baxtiyordir.

Al-Buxoriyning zehni juda o'tkir bo'lgan. Uning yozishicha 100 ming saxix va 200 ming g'ayri saxix hadisni yod bilgan. U 1080 ta muhaddisdan hadis eshitgan, undan esa 90 ming qishi ishonarli hadislarni eshitgan. Hadislarda ta'lim - tarbiya, odob - axloq haqidagi fikrlar juda ko'plab uchraydi. Arablar bosib olganidan keyin Movarounnahrda ham arablardagi kabi machitlar barpo etildi, machitlar huzurida esa maktablar ochildi. Bu maktablarda o'g'il bolalarga Qur'oni Karimni o'qishni o'rgatishga farmon berildi. Machit imomi bolalarni o'qitardi. maktablarda arab tili muhim fan sifatida o'qitilgan. Ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston hududida ham VIII-IX asrlardan boshlab maktab va madrasalar paydobo'la borgan. Bu yerda beriladigan ta'limning manbai Qur'on asoslari, hadislar va ulamolarning kitoblari hisoblangan. Ta'lim va tarbiyada haqiqiy insoniy hislatlar targ'ib qilingan. Farzandlarning halol, pok, mehnatsevar, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalashga e'tibor berilgan, shu bilan birga dunyoviy bilimlar, hisob, adabiyot, tarix, geografiy ilmlari ham o'rgatilgan. Mana o'n ikki asrdiki, "Al-jome as-sahih" asari millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va ezgulik yo'lga chorlab ketmoqda. Yaratganga shukrlar bo'lsinki, ozodligimiz sharofati bilan al-Buxoriydek ulug' ajdodlarimiz el-yurti bag'riga qaytmoqda. Allomaning o'lmas merosi har bir yurtdoshimiz xonadoniga kirib, ong-u tafakkurimizni ravshan etmoqda, qalbimizni iymon nuri va mehr-oqibat tuyg'ulari bilan musaffo etmoqda.

Aynan Imom Buxoriy tufayli Movarounnahr hududida IX—XII asrlarda ko'plab hadisshunoslik maktablari shakllandi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi. Hozirgi kunda olimning asarlari dunyoning o'nlab tillariga tarjima qilingan va islom dunyosida uning ijodidan ko'plab ilmiy tadqiqotlarda foydalanib kelinadi. Xorijiy yurtlardagi safardan keyin Buxoroga qaytgach, hadis ilmini targ'ib etishga kirishadi. Ul zotning bu sa'yu ko'chishlari bu vaqtda Buxoroda hisoblanadi. Bu asar Hindiston va Qohirada chop etilgan. Buxoriy yaratgan „Kitob al-favoid“

(„Foydali ashyolar haqida kitob“), „Al-Jome’ al-kabiyr“ („Katta tayanch“), „Xalq af’ol alibod“, („Alloh bandalari ishlarining tabiati“), „Al-Musnad al-kabiyr“ („Katta tayanch“), „At-tafsir al-kabiyr“ („Katta tafsir“), „Kitob al-xiba“ („Xayr-ehson haqida kitob“) va boshqa asarlarning ba’zilar bizgacha yetib kelmagan, ba’zilar jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma’lumotlar bor. Buxoriyning boshqa asarlari orasida „Tafsir alQur’on“ („Qur’on tafsiri“) kitobini ham alohida ta’kidlash kerak. Buxoriy asarlari musulmon dunyosining barcha madrasa va dorilfununlarida payg’ambar (as) sunnatlari bo’yicha asosiy darslik, qo’llanma hisoblanadi. Jamoat arboblari, olimu ulamolar va din peshvolari Buxoriy asarlariga tayanib ish tutadilar. Istiqlol sharofati bilan Buxoriyning o’lmas merosi el-yurti bag’riga qaytdi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo’yicha 1225-yilligini nishonlash to’g’risida“gi qarori (1997-yil 29-aprel) asosida Buxoriyning ilmiy merosini o’rganish va targ’ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. 1998-yil 23-oktabrda Samarqandda yubiley to’y-tantanalari bo’lib o’tdi. Alloma abadiy qo’nim topgan Chelak tumanidagi Hartang qishlog’ida ulkan yodgorlik majmui ochildi (qarang Buxoriy yodgorlik majmui). Buxoriyning boy ma’naviy merosini chuqur o’rganish va keng targ’ib qilish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan Imom al-Buxoriy xalqaro jamg’armasi tuzildi (1998-yil 4-noyabr; raisi Zohidillo Munavvarov). Jamg’armaning asosiy vazifasi Qur’oni karim va Buxoriyning „al-Jome as-sahih“i tarjimalarining akademik nashrlarini tayyorlash, buyuk islomshunoslar ilmiy merosini tadqiq etish, diniy-falsafiy mavzularda ilmiy anjumanlar o’tkazish va shular yordamida yosh avlodni milliy an’analarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. 2000-yildan boshlab mazkur jamg’arma o’zining ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy „Imom al-Buxoriy saboqlari“ jurnalini nashr eta boshladi. Jurnal xalqimizni milliy-ma’naviy merosimizdan bahramand etish, milliy, diniy qadriyatlarning sog’lom idrok etilishiga yordam berishni o’z oldiga maqsad qilib qo’ygan. O’zbekistonda Buxoriyning xotirasi munosib tarzda

abadiylashtirilgan. Toshkent Islom institutiga Buxoriy nomi berilgan. Buxoriyning hayoti va ijodiga bag'ishlab bir necha tillarda kitob-albom, 2 qismli film (1995), „Hadis ilmining sultoni“ 4 qismli kinoqissa (1998) yaratilgan va u vafot etagdi. Falsafani maxsus bilimlar bilan birlashtirish qadimgi davrga xos xususiyat bo'lgani uchun u tabiat falsafasi, ya'ni «naturfilosofiya» deb ham hisoblangan. U tabiiy fanlar tushunchalariga asoslangan holda tabiatni yaxlit tasvirlab berishga qaratilgan bo'lib, kishilik jamiyatining ilk bosqichida keng taraqqiy etgan mifologik tasavvurlarni siqib chiqarishga asos yaratadi. Qadimgi davr falsafasida olamni yaxlit izohlab berish bilan bir qatorda narsa va hodisalarning taraqqiyot qonunlarini o'rganish usullari, bilish nazariyasi hamda ijtimoiy fikrlar (axloq-odob, davlatni boshqarish masalalari) ham katta o'rin olgan. Endilikda falsafa fani tabiatni yaxlit o'rganish muammolari bilangina emas, balki fan taraqqiyotida ilmiy bilishning ahamiyati, bilish jarayonining asosiy bosqichlari, ilmiy bilishda aniq fanlarda qo'llanadigan uslublarning roli, fan taraqqiyotida mantiqiy tafakkurlashning qonuniyatlari va shakllari kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Shuningdek, inson va jamiyat insonning erki va huquqlari, axloq-odob, davlat muammolari hamkengorinoladi. XIX asrdan boshlab boshqa fanlar tomonidan hosilqilingan bilimlarni birlashtirish va umumlashtirishga ehtiyoj kuchaya bordi. Xususiyl fanlarning erishgan muvaffaqiyatidan kelib chiqqan holda borliq va bilishning falsafiy masalalariga bo'lgan qiziqish yanada kuchaydi. Faylasuflar orasida falsafiy tizim yaratishga intiluvchilar ko'payib ketdi. Bunga misol sifatida nemis klassik falsafasining yirik vakili Gegel tomonidan yaratilgan falsafiy tizimni ko'rsatib o'tishimiz o'rinlidir. U o'zining «Mantiqilmi» asarda dialektika qonunlariga asoslangan yaxlit falsafiy tizimni yaratgan edi. Gegelning bu ta'limoti hanuzgacha falsafa faniga o'zining ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Fan va texnikaning doimiy ravishda taraqqiy etishi hamda jamiyatning turli sohalarida ro4y berayotgan jarayonlar falsafa fanining rivojlanishiga va uning muammolar doirasini kengaytirishga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Falsafa yaxlit ilmiy bilim tizimini tashkil etib, muayyan fundamental

qoidalarning yig'indisiga asoslanadi. Bu qoidalar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan quyidagi uch turqum, yirik muammolarni qamrab oladi.

Xulosa .

Mazkur maqolada yaqqol ko'rinib turibdiki, falsafa fundamental nazariy fan bo'lsa-da, uning markazida turgan muammolar hayotdan ajralib qolgan mavhum qoidalar emas, balki hayotning o'zidan kelib chiqqan, davrimizning diqqat markazida turadigan va hammani qiziqtiradigan muammolardir. Falsafa — o'zining mohiyatiga ko'ra insonparvar fandir. U muayyan sinflarning, ijtimoiy guruhlarining, siyosiy partiyalarning ehtiyojlarini qondirishdagina emas, balki insonning baxt-saodati, kamolotini ta'minlashga, jamoatimizni milliy davlatini mustahkamlab, millatlar o'rtasida hamkorlik, hamjihatlikni rivojlantirishga, shu asosida respublikamizning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy sohalarida ro'y berayotgan ziddiyatlarini tinchlik asosida bartaraf etishga va shu kabi olijanob muammolarga xizmat qilishga qaratilgan insonparvar, insonsevarlik ruhi bilan sug'orilgan fandir. Falsafa fanini azaldan qiziqtirib kelayotgan masalalar umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan muammolardir. Inson erki va huquqlarini himoya qilish, Er yuzida tinchlikni saqlash, qurollanish poygasini to'xtatish, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, xavfli kasalliklarni, ocharchilik, irqchilik, millatchilikning oldini olish, atrofmuhitni muhofaza etish, fan-texnika yutuqlaridan insoniyat hayotini yaxshilash yo'lida foydalanish kabi umumbashariy muammolar hozirgi davr uchungina emas, balki kelajak hayot uchun ham juda muhim va katta ahamiyatga ega bo'lgan falsafiy muammolardir. Ularni chuqur va atroflicha tahlil qilish kishilarning falsafiy fikrlash mahoratini oshirishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI .

- 1.Falsafa. Axmedova M. Taxriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
- 2.Falsafa. Mamashokirov S. Tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.
- 3.Shermuxamedova H.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.
- 4.Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya-bilish nazariyasi.-T.: Noshir, 2009.

5. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012.
6. Shermuxamedova N.A. Borlik va rivojlanish falsafasi.-T.: Noshir, 2013.
7. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2017.